

01/02-08
03.03.2026-yil



“TASDIQLAYMAN”
SamDAQU rektori
Ch.J.Turkyilmaz
03.03.2026 yil

**Ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimining samaradorligini baholash
tartibi to’g’risida
N I Z O M**

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimi to’g’risidagi mazkur Nizom (keyingi o’rinlarda – Nizom) Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti (keyingi o’rinlarda – universitet) ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, yo’nalishlari, uni tashkil etish va faoliyat yuritish tartibi, tashkiliy tuzilmasi hamda ta’lim sifatini nazorat qilish va ekspert baholash tartiblarini belgilaydi.

1.2. Mazkur Nizom normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan:

1) “Ta’lim to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan. Toshkent sh., 2020-yil 23-sentyabr, O‘RQ-637-son.

2) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 23-sentyabrdagi 797-son qarori.

3) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarori;

4) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 8-noyabrdagi PQ-416-son qarori.

5) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2025-yil 5-maydagi PF-76-son farmoni;

6) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori;

7) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi direktorining “Oliy ta’lim

tashkilotlarining ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlarni tasdiqlash haqida"gi 2025-yil 14-noyabrdagi 2-son buyrug'i (Adliya vazirligi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3716, 01.12.2025 yil)

8) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktorining 2025-yil 2-dekabrda "Oliy ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlarni tasdiqlash haqida"gi 5-son buyrug'i (ro'yxat raqami: 3732)

9) Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Ustavi va boshqa mahalliy normativ-huquqiy hujjatlar.

1.3. Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi (keyingi o'rinlarda – TSIT tizimi) ta'lim natijalari sifati, ta'lim jarayonini amalga oshirish sifati hamda ta'lim jarayonini ta'minlovchi shart-sharoitlar sifati asosiy ishtirokchilarning talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda yagona asosda baholashni ta'minlaydigan tashkiliy tuzilmalar, me'yor va qoidalar, diagnostika hamda baholash jarayonlari majmuasidir.

1.4. Mazkur Nizomda quyidagi atamalar qo'llaniladi:

– **mezon** — baholanayotgan obyektning baholash yoki tasniflash uchun asos bo'ladigan minimal talablar va standartlar majmui(alomatlar, belgilar);

– **monitoring** — ta'lim tizimining rivojlanishi va faoliyati belgilangan maqsadlarga qay darajada mos kelishini aniqlash uchun jarayonlar, natijalar va boshqa ko'rsatkichlarni muntazam kuzatish;

– **ta'lim sifati monitoringi** — ta'lim sifatiga doir ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni kuzatish orqali to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish va prognozlash asosida ta'lim jarayoni bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

– **ta'lim sifatini baholash** — diagnostika va baholash jarayonlari yordamida ta'lim natijalari, ta'lim jarayoni va resurs ta'minotining normativ talablar hamda ijtimoiy va shaxsiy kutilmalarga moslik darajasini aniqlash;

– **ta'lim sifati monitoringi tizimi** — ta'lim tizimi va uning alohida elementlari haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish, saqlash va tarqatish tizimi bo'lib, ta'lim sifatini boshqarish uchun axborot ta'minotiga yo'naltirilgan; istalgan vaqtda universitetdagi ta'lim tizimining holatini baholash va uning rivojlanishini prognoz qilish tizimi.

2. TSIT tizimining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari va funksiyalari

2.1. TSIT tizimining maqsadlari:

– universitetda ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi omillar va o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlashni ta'minlaydigan ta'lim holatini tashxislash va nazorat qilish tizimini shakllantirish;

– universitetda ta'lim tizimining faoliyati va rivojlanishi, uning o'zgarish tendensiyalari va darajasiga ta'sir qiluvchi sabablar haqida obyektiv ma'lumot olish;

– ta'lim jarayoni ishtirokchilari va manfaatdor tashkilotlarni ta'lim sifati to'g'risida ishonchli ma'lumot bilan ta'minlash;

– ta'limni takomillashtirish bo'yicha asoslangan va boshqaruv qarorlarini o'z vaqtida qabul qilish hamda qaror qabul qilish jarayonida ta'lim xizmatlari iste'molchilarini xabardor qilish.

2.2. TSIT tizimining vazifalari:

- ta'lim sifati mezonlarini va uni o'lchash tamoyillarini shakllantirish;
- ta'lim sifatini baholashning asosiy maqsadlarini samarali amalga oshirish imkonini beruvchi tahliliy ko'rsatkichlar tizimini yaratish;
- universitet faoliyatining rivojlanish holati va samaradorligini o'rganish hamda o'z-o'zini baholash;
- ta'lim jarayonini amalga oshirish shart-sharoitlarining zamonaviy talablariga moslik darajasini aniqlash;
- ta'lim xizmatlari asosiy iste'molchilarining talablarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarining normativ talablarga moslik darajasini aniqlash;
- ta'lim oluvchilarning ta'lim individual muvoffaqiyatlari darajasini baholash;
- ta'lim sifati monitoringi doirasida ta'limning turli bosqichlarida ta'lim sifati davlat standartlariga moslik darajasini aniqlash;
- ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash;
- ta'lim sifatini baholash jarayonlarida ishtirok etuvchi pedagog xodimlar malakasini oshirishga ko'maklashish;
- pedagog xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish talablari hamda ta'lim oluvchilarning individual yutuqlariga oid masalalar bo'yicha ularning malakasini oshirish yo'nalishlarini belgilash;
- monitoring va tahlil natijalaridan pedagog xodimlar faoliyatining sifati va samaradorligini baholashda foydalanish.

2.3. TSIT tizimi tamoyillari:

- ta'lim sifati to'g'risidagi axborotning obyektivligi, ishonchliligi, to'liqligi va tizimlilik;
- ta'lim sifati talablari, me'yorlari va ko'rsatkichlarining haqqoniyligi, ularning ta'lim va tarbiya natijalarini baholashda alohida ta'lim oluvchilarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish;
- ta'lim sifatini baholash jarayonlarining ochiqligi va shaffofligi;

- ta'lim holati va sifati to'g'risidagi axborotning turli iste'molchilar guruhlari uchun ochiqligi;
- pedagoglarning o'z faoliyatlarini obyektiv mezon va ko'rsatkichlar asosida o'z-o'zini tahlil va baholash jarayoniga jalb etish;
- har bir pedagog xodimning ichki baholash, o'z-o'zini baholash va tahlil qilish salohiyatini oshirish;
- universitetda ta'lim sifatini baholash jarayonlarini o'tkazishda axloqiy-me'yorlarga rioya etish.

2.4. TSIT tizimi funksiyalari:

- ta'lim sifati monitoringi ko'rsatkichlari va indikatorlariga muvofiq ta'lim tashkiloti bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish;
- ta'lim sifati dinamikasini va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, taqqoslama ma'lumotlarni olish;
- universitet ma'lumotlar bazasida ta'lim sifati holati va dinamikasi to'g'risidagi axborotlarni o'rganish va tartibga solish;
- ta'lim sifati monitoringi jarayonlarida ishtirok etuvchi tashkiliy tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirish.

3. TSIT tizimini tashkil etish

3.1. TSIT tizimi ta'lim faoliyatini boshqarish uchun axborot ta'minoti vazifasini bajaradi.

3.2. TSIT tizimi natijalarining asosiy foydalanuvchilari quyidagilar hisoblanadi:

- boshqaruv xodimlari;
- o'qituvchilar;
- ta'lim oluvchilar;
- universitet ilmiy kengashi;
- ish beruvchilar;
- universitetni litsenziyalash va akkreditatsiyadan o'tkazish jarayonlarida tayinlanadigan tashqi ekspertlar.

3.3. TSIT tizimi uchun ma'lumot manbalari sifatida quyidagilar qo'llaniladi:

- ta'limga doir statistik ma'lumotlar;
- oraliq va yakuniy nazorat natijalari;
- monitoring tadqiqotlari;
- sotsiologik so'rovlar;
- universitet professor-o'qituvchilarning hisobotlari;
- professor-o'qituvchilar darslariga o'zaro kirish;
- darslar va auditoriyadan tashqari tashkil etiladigan tadbirlarni kuzatish.

3.4. TSIT tizimi obyektlari:

- ta'lim dasturlari;
- pedagog xodimlar (kasbiy kompetensiya darajasi; pedagogik faoliyati sifati va samaradorligi; professionallik va malaka darajasi);
- ta'lim oluvchilar (ta'limdagi muvaffaqiyatlari, bitiruvchilar tayyorgarligi sifati);
- ta'lim jarayoni (ta'lim mazmuni; oraliq va yakuniy nazorat tahlili);
- shart-sharoitlar (o'quv-uslubiy, moddiy-texnik, normativ-huquqiy, sanitariya-gigiyena, kadrlar va moliyaviy resurslar).

3.5. Ta'lim sifatini baholash:

- ichki nazorat tizimi;
- davlat akkreditatsiyasi;
- bitiruvchilarning Uakuniy davlat attestatsiyasi;
- ta'lim jarayoni sifati monitoringi orqali amalga oshiriladi.

3.6. TSIT tizimi yo'nalishlari:

- ta'lim dasturlari sifati;
- ta'lim dasturlarini amalga oshirish shart-sharoitlarining mavjudligi va sifati;
- ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish (ta'lim natijalari) sifati;
- ta'lim sifati bo'yicha iste'molchilarning qoniqish darajasi.

3.7. TSIT tizimi doirasida baholash tadbirlari o'quv yili davomida o'tkaziladi; olingan natijalar ta'lim sifatini ichki (o'z-o'zini) baholash hisobotini tayyorlash bosqichida umumlashtiriladi.

3.8. TSIT tizimining asosiy tadbirlari:

- universitetda amalga oshirilayotgan ta'lim dasturlarining DTS talablariga muvofiqligini baholash;
- ishchi o'quv dasturlarining bajarilishini nazorat qilish;
ta'lim dasturlarini amalga oshirish shart-sharoitlarining belgilangan normativ talablarga muvofiqligini baholash;
- kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini monitoring qilish;
- ta'lim dasturi maqsadiga erishishda ta'lim oluvchining shaxs sifatida rivojlanishi monitoringi;
- ta'lim jarayoni ishtirokchilari (manfaatdor tomonlar)ning ta'lim sifati bo'yicha qoniqish darajasini baholash;
- baholash ma'lumotlarini tizimlashtirish va qayta ishlash, TSIT tizimini ta'miash bo'yicha tahliliy ma'lumot va asoslovchi hujjatlarni tayyorlash;
- o'z-o'zini baholash hisobotini tayyorlash va uni universitetning rasmiy veb-saytida joylashtirish.

4. Ta'lim sifatini ichki baholashni o'tkazish tartibi

4.1. Ta'lim sifatini ichki baholashni o'tkazish uchun quidagilar asos bo'ladi:

- rejali nazorat;

- boshqaruv qarorlarini tayyorlash maqsadida ishlar holatini tekshirish;
- ta'lim sohasidagi kamchiliklar yuzasidan talabalar va (yoki) professor-o'qituvchilar, boshqa jismoniy yoki yuridik shaxslarning murojaatlari;
- Monitoring yoki so'rovnomalar asosida ta'lim sifati bo'yicha kamchiliklar aniqlanganda;

4.2. Ta'lim sifati ichki baholash ikki shaklda amalga oshiriladi:

- ta'lim bosqichlari bo'yicha (oraliq baholash va yakuniy baholash);
- davriylikka ko'ra (tezkor, bir martalik va tizimli baholash).

4.3. Ta'lim sifati ichki baholash mazmuniga oid istalgan masala bo'yicha tekshiruvni tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat:

- baholash maqsadi va obyektlarini aniqlash;
- ichki baholash ko'rsatkichlarini belgilash;
- baholash shakli va usullarini tanlash (ko'rsatkichlarni baholash asosida);
- har bir ko'rsatkich bo'yicha baholash davriyligi va muddatlarini belgilash;
- ichki baholash ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun mas'ul xodimlarni tayinlash;
- ichki baholash ishtirokchilariga yo'riqnoma berish;
- ishlarning joriy holatini aniqlash (faktlarni qayd etish);
- ichki baholash ko'rsatkichlari tahlilidan kelib chiqadigan xulosalar;
- ta'lim jarayonini takomillashtirish yoki kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar va takliflar;
- kamchiliklarni bartaraf etish muddatlarini belgilash yoki takroriy baholashni o'tkazish.

4.4. Ta'lim sifati ichki baholashni amalga oshiruvchilar:

- universitet rektori;
- prorektorlar (sohalar bo'yicha);
- fakultet dekanlari (ta'lim dasturi koordinatorlari);
- ta'lim sifati nazorati bo'limi;
- o'quv-uslubiy bo'lim vakillari.

4.5. Ta'lim sifati ichki baholashni o'tkazish uchun komissiya tuzilishi mumkin. Baholash jarayonida ekspert sifatida tashqi tashkilotlar vakillari va alohida mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

4.6. Ta'lim sifati baholashni o'tkazish axborotni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va undan foydalanishning barcha bosqichlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni nazarda tutadi.

4.7. Ta'lim sifati ichki baholash usullari:

- test sinovlari;
- ekspert baholash;
- nazorat va boshqa turdagi tadbirlarni o'tkazish, ma'lumotlarni statistik qayta ishlash va boshqalar.

4.8. TSIT tizimini amalga oshirish quyidagi ketma-ket harakatlarni nazarda tutadi:

- ta'lim sifati baholash obyektini aniqlash va asoslash;
- ta'lim sifatini baholash uchun zarur ma'lumotlarni yig'ish;
- baholash jarayonida olingan ma'lumotlarni qayta ishlash;
- olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va talqin etish;
- tahlil natijalari bo'yicha hujjatlarni tayyorlash;
- ta'lim sifatini baholash natijalarini foydalanuvchilar o'rtasida tarqatish;
- ma'lumotlarni saqlash va tezkor foydalanishni ta'minlaydigan ma'lumotlar bazalarini tuzish va tizimlashtirish.

4.9. Ta'lim sifatini ichki baholashni amalga oshirish jarayonida ishchi guruhi a'zolari (ekspertlar) quyidagi huquqlarga ega:

- pedagog xodimlarning lavozim majburiyatlariga muvofiq hujjatlar bilan tanishish (kalendar-tematik rejalashtirish, o'quv-uslubiy materiallar, talabalarning mustaqil ishlari (loyihalari) va boshqalari);
- o'quv mashg'ulotlarini o'zaro kuzatish, auditoriyadan tashqari tadbirlarga qatnashish hamda tahlil qilish orqali pedagog xodimlarning amaliy faoliyatini o'rganish;
- pedagogik faoliyat natijalari bo'yicha statistik ma'lumotlarni tahlil qilish;
- pedagog xodimlarning o'quv-uslubiy faoliyati natijalarini tahlil qilish;
- ta'lim oluvchilarning olimpiadalar, tanlovlar, ko'rgazmalar, konferensiyalar va boshqa tadbirlardagi ishtiroki natijalarini tahlil qilish;
- ta'lim oluvchilar va pedagog xodimlar o'rtasida so'rovnomalar, test sinovlari o'tkazish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xulosalar chiqarish va tavsiyalar berish.

4.10. Baholash tadqiqotlari natijalari asosida tavsiyalar ishlab chiqiladi, qarorlar qabul qilinadi, universitetni rivojlantirish bo'yicha rejalar tuziladi va prognozlash ishlari amalga oshiriladi.

5. Ta'lim sifatini ekspert baholash tartib-taomillari mazmuni

5.1. Ta'lim sifatini ichki baholash tizimini amalga oshirish mazkur tartib hamda ta'lim sifatini ekspert xulosalari orqali ta'minlanadi.

5.2. Ta'lim oluvchilarning ta'lim natijalari sifatini baholash tartibi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- talabalarning joriy va oraliq sinovlari natijalari;
- o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti attestatsiyasi;
- bitiruvchilarning Yakuniy Davlat Attestatsiyasi;

- ta'lim oluvchilarning bilimi sifati, ularning kasbiy-psixologik rivojlanishi bo'yicha monitoring tadqiqotlari;
- xalqaro, respublika, mintaqaviy, viloyat, institutsional konferensiyalar, tanlovlar, fan olimpiadalari, shuningdek universitet ichidagi shunga o'xshash tadbirlarda ishtirok va natijadorlik;
- 1-bosqich talabalarining o'qishga moslashuvi va tayyorgarligini o'rganish;

5.3. Ta'lim jarayoni sifatini baholash tartibi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- attestasiya va davlat akkreditatsiyasi natijalari;
- rasmiy hisobotlar va ta'lim sifatini ichki baholash hisobotlarini tahlil qilish orqali o'z-o'zini baholash samaradorligini aniqlash;
- ta'lim jarayoni va amaliyotning uslubiy hamda axborot ta'minoti;
- o'quv auditoriyalarining zamonaviy uskunalari va o'qitish vositalari bilan jihozlanganlik darajasi; metodik qo'llanmalar va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganlik;
- mehnatni muhofazasi, texnika xavfsizligi, ishlab chiqarish sanitariyasi, xavfsizlik holatining talablarga muvofiqligi;
- talabalar harakati va kontingent saqlanishini baholash;
- bitiruvchilarning ishga joylashish natijalarini tahlil qilish.

5.4. Pedagog xodimlarning kasbiy kompetensiyasi va talab etilgan ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha faoliyatini baholash tartibi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- pedagog xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish;
- pedagogik mahoratni muntazam oshirishga bo'lgan munosabat va tayyorgarlik darajasi; (malaka oshirish kurslaridagi ishtiroki, metodik seminarlar, yig'ilishlar, seminarlar, metodik birlashmalar ishida ishtirok etish va boshqalar);
- zamonaviy pedagogik uslular va texnologiyalarni bilishi va qo'llashi;
- talabalarining ta'limdagi muvaffaqiyatlari;
- turli darajadagi professional tanlovlar, ilmiy konferensiyalari, davra suhbatlari va boshqalarda ishtirok etish;
- pedagogik tajribasini ommalashtirilganligi;
- pedagog xodimlarning kasbiy va ijtimoiy fazilatlarini.

6. Yakuniy qoidalar

6.1. Ta'lim jarayonini takomillashtirish zarurati yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi o'zgarishlar kiritilgan taqdirda mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. O'zgartirish va qo'shimchalar

belgilangan tartibda kelishilgan holda Nizomning yangi tahriri loyihasini tayyorlash orqali amalga oshiriladi.

6.2. Mazkur Nizom tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

YMD3187

YMD3187

YMD3187

YMD3187

YMD3187

YMD3187